



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
"GEOGRAFIYA VA AGRONOMIYA" FAKULTETI**

**"ZAMONAVIY GEOGRAFIYADA INNOVATSION G'oyalalar: RAQAMLI
IQTISODIYOT VA GIS TEXNOLOGIYALAR"**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2024-yil 25-26-oktabr**

**"ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В СОВРЕМЕННОЙ ГЕОГРАФИИ:
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ГИС-ТЕХНОЛОГИИ"**

**Международная научно-практическая конференция
25-26 октября 2024 года**

**"INNOVATIVE IDEAS IN MODERN GEOGRAPHY:
DIGITAL ECONOMY AND GIS TECHNOLOGY"**

**International scientific and practical conference
October 25-26, 2024**

I-QISM



Qarshi shahri-2024

	Mardonova N.	qilish	
9.	Jumayev X.X., Raximberdiyev M.O.	Turizm va rekreatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	157
10.	Jumayev X.X., Shokirova G.SH.	Qashqadaryo viloyatining tabiiy turistik - rekreatsion salohiyati	161
11.	Qurbonov P.R., Safarov I.B.	Qashqadaryo viloyatida rivojlanayotgan ziyorat turizmi (G'uzor tumani misolida)	169
12.	Tobirov O.Q., Isafov M.Sh., Ro'zmatova K.X.	GIS yordamida turizm va rekreatsiyaning rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari	176
13.	Tobirov O.Q., Isafov M.Sh., Ro'zmatova K.X.	Turizm va rekreatsiyaning rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari	179
14.	Matnazarov A.R., Xolbo'tayev A.N., Toshpo'latova S.Q., Xudayberdiyeva H.R.	O'zbekistonda glyatsioturizmni o'rganish va uni rivojlantirishga qaratilgan ayrim masalalar xususida	183
15.	Atadjanov I.Sh.	O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari	185
16.	Fayzullayeva L.X.	Turizm va rekreatsion hududlardan samarali foydalanish istiqbollari (qashqadaryo viloyati misolida)	189
17.	Djurayeva L.V.	O'zbekistonning turizmini rivojlanishida turistik oqim statistikasini o'mi	192
18.	Safarov I.B.	O'zbekistonda sakral turizmni rivojlantirish istiqbollari	195
19.	Ernazarov Sh.E., Pardayev N.S.	Surxondaryo viloyati shaharlarining rivojlanishida turizmning roli	200
20.	Музропова Ф.И.	Пути разработки методологии для получения ютуристических регионов на региональной систематической карте	204
21.	Xamidova M.Z.	Arxeologik yodgorliklar va tarixiy manzilgohlarni o'rganishning ijtimoiy-geografik jihatlari (janubiy iqtisodiy rayon misolida)	207
22.	Normatov S.A.	Qashqadaryo qishloq turizmining shakllanishi va rivojlanishi	211
23.	Yusupov B. B.	Shahrisabz tumani G'elon qishlog'ining ekoturizmdagi imkoniyatlari	213
24.	Shodiyeva N.H., Ro'zmatov B.Z.	Turizm geografiyasi va uning rivojlanish masalalari	220
25.	Bozarov E.B., Bozorova J.Yu.	Turizm sohasini rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va roli	225
26.	Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Uzakova M.O.	Rekreatsiya - turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalari (Quyilarafshon okrugi misolida)	228
27.	Nasretdinova A., Bozorova J.	Raqamlashtirish orqali turizm imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirish	232
28.	Pardayev N.S., Saitqulova Z.U.	Buxoro viloyatining turistik salohiyati va imkoniyatlari	235
29.	Abdujabborov N.F.	Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslaridan	240

obyektlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni, balki yondosh sohalardagi muammolarni ham hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802 sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 117-sonli qarori.
5. Bozarov Elyor Boboqulovich. "Raqamli axborot tizimlari va texnologiyalari orqali mintaqa ziyoratgoh va qadamjolarini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati" Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. -370-373, 2023-yil.
6. Bozarov Elyor Boboqulovich. O'zbekiston Respublikasi hududida ziyorat turizmini rivojlantirish zaruriyati va sa'y-harakatlar. Gospodarka i Innovatsie. -526-531, 2022-yil.
7. Mintaqadagi ziyoratgoh va qadamjolarini modernizatsiyalashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. -56-58, 2023-yil.

Internet manbalari

1. Lex.uz
2. Samdu.uz

REKREATSIYA –TURISTIK RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI (QUYI ZARAFSHON OKRUGI MISOLIDA)

Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Uzakova M.O.

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rekreatsiya–turistik resurslardan oqilona foydalanishning geografik asoslari, jumladan tabiiy geografiya hamda resursshunoslik fanining nazariy va amaliy masalalari, madaniy landshaft konsepsiyasining mohiyatiga doir ma'lumotlar tahlil qilingan va munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: cho'l zonasi, tabiiy resurslarni boshqarish, landshaft, antropogen landshaft, konsepsiya, cho'l zonalaridagi madaniy landshaft konsepsiyasi, indikator, geosistema, optimallashtirish.

ВОПРОСЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕКРЕАЦИОННО- ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ НИЖНЕ-ЗАРАФШАНСКОГО РАЙОНА)

Эргашева М.К., Исаяева М.Н., Узакова М.О.

Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

Аннотация: В данной статье проведён анализ и выражены географические основы рационального использования рекреационно-туристских ресурсов, включая теоретические и практические вопросы физической географии и ресурсоведения, сведения о сущности понятия культурного ландшафта.

Ключевые слова: пустынная зона, природопользование, ландшафт, антропогенный ландшафт, концепция, концепция культурного ландшафта в пустынных зонах, индикатор, геосистема, оптимизация.

ISSUES OF REASONABLE USE OF REKREATION-TOURISTIC RESOURCES (IN THE EXAMPLE OF LOWER ZARAFSHAN DISCRICT)

Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Uzakova M.O.

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

Abstract: In this article, the geographic basis of the rational use of recreational-tourist resources, including theoretical issues of natural geography and resource science, information on the nature of the concept of cultural landscape is analyzed and expressed.

Key words: desert zone, natural resource management, landscape, anthropogenic landscape, concept, cultural landscape concept in desert zones, indicator, optimization.

Jahon aholisining tabiiy resurslar bilan ta'minlashda geografik fanlar, shu jumladan landshaftshunoslik fani yutuqlari beqiyosdir. Buning asosiy sababi tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida atrof-muhitga ta'sirning tobora ortishi oqibatida turli texnogen xavflar ham kuchaymoqda. Ushbu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 4-maqsadi "sifatli ta'lim" hamda 17-maqsadi "barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik..." vazifalari yechimiga yo'naltirilgan¹. Mazkur vazifalar ichida tabiiy resurslardan foydalanish alohida muammo sifatida e'tirof etilgan.

Dunyo miqyosida geografiya fanining ramzi, obyekti va predmeti, nazariya va metodologiyasi, tushuncha va tamoyillari, inson yashaydigan va xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini baholash kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda tabiiy resurslar hamda uning rivojlanish tarixini o'zida aks ettiruvchi zamonaviy adabiyotlarni nashr ettirish bo'yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda hamda bu borada sezilarli natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti loyihasi"² 80-maqsadi "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, unda geografiya faniga oid bilimlar o'ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda "resurs" tushunchasi ko'p qirrali mazmunga ega. Uning ilmiy talqinlari ko'p, hanuzgacha qat'iy bir fikrga kelingani yo'q. Talqinlar qanday bo'lmasin, uning

¹ 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // elektron dostup: <http://www.uz/undp/org/>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони

mag'zida antropotsentrik mazmun yotadi, ya'ni insonning hayoti va yashashi uchun zarur va foydali bo'lgan tabiiy, moddiy, nomoddiy va ma'naviy boyliklar tushuniladi.

Mamlakatimizda turizm sohasi bozor munosabatlarini shakllantirishda xizmat ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning hal etishda, o'ziga xos o'rni bor. Chunki, bu soha bozor subyekti sifatida tez rivojlanish bosqichida, uning tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasi ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Turizm nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan o'z mavqeiini mustahkamlab bormoqda. Bu kelajakda ham istiqbolli porloq sohalardan biri bo'lib qoladi. Zarafshon mintaqasida rekreatsion-turistik resurslardan foydalanish, mahsulotlarni shakllantirish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shunday ekan, Zarafshon mintaqasida turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab qiladi.

Zarafshon mintaqasi betakror tabiati hamda ko'hna va boy tarixi, islom madaniyatining dastlabki tamallari qo'yilgan ko'hna shahar ekanligi bilan qadimdan sayyohlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Mintaqada mavjud tabiiy resurslar, boy tarixiy merosdan yanada samarali foydalanish maqsadida bugungi kunda turli islohotlar amalga oshirilmog'da. Xuddi shunday tashviqotlarning samarasi sifatida 2022-2026-yillarida "Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Buxoro viloyatidagi **800 dan ziyod madaniy obyektlarni** birma-bir **restavratsiya** qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. "Qadimgi Poykent" arxeologik merosi obyekti muhofaza qilish, tadqiq etish, muzeylashtirish choralari ko'rilib, arxeologiya parki yaratilishi, Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni alohida kolleksiya holida Buxoroda saqlanishi va muhofaza qilinishi belgilab berilgan. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi qo'lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni tahlil qilgan xolda, YUNESKOning «Jahon xotirasi» ro'yxatiga kiritilishi bo'yicha zarur choralarning ko'riladi. Buxoro viloyati hokimligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda «Turizm mahallasi», «Turizm ovuli», «Turizm qishloqlari»ning ichki yo'llari, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma obyektlarini ta'mirlash ishlarini keyingi yillardagi «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga kiritiladi hamda uning doirasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

P.Barotov ma'lumotiga ko'ra Quyi Zarafshon okrugi Zarafshon daryo vodiysining quyi qismini, Buxoro va Qorako'l vohalarini, Zarafshonning g'arbdan va janubi-g'arbdan tutashib turgan qadimgi allyuvial-delta tekisliklarini, Dengizko'l platosini, o'z ichiga oladi. Okrug sharqda O'rta Zarafshon okrugidan kengligi 2-4 km keladigan Hazor yo'lagi orqali ajralib turadi.

Quyi Zarafshon okrugi paleozoy burmali negizning bukilgan qismida joylashib, uning ustini mezozoy va kaynjzoy cho'kindi jinslari qoplab olgan. Kaynozoy keng tarqalgan, ular ichida eng ko'p uchraydigan jinslar to'rtlamchi davrning allyuvial-delta yotqiziqlari bo'lib, ular Zarafshon daryosi olib kelgan shag'al, qum, qumog' va loyqalardan iborat.

Okrug hududi asosan tekisliklardan – Buxoro va Qorako'l deltalaridan iborat. Zarafshon daryosi O'rta Zarafshon botig'idan chiqib Navoiy shahridan g'arbda va janubi-g'arbda Buxoro deltasiga kirib boradi. Bu deltani shimoldan va g'arbdan Qizilqum, sharqidan Qiziltepa, Azkamar, Quyumozor, Qaynog'och balandliklari, Qo'shtepa va Qumsulton tepaliklari, janubi-sharqdan esa Qorako'l platosi o'rab turadi. Buxoro deltasi janubi-g'arbg'a tomon biroz nishab bo'lib, sug'orish shahobchalari uni ayrim qismlarga bo'lib yuborgan.

Unda Zarafshon daryosining 4 ta qayiri joylashgan. Deltaning uzunligi 102 km, o'rtacha kengligi 50-55 km, eng keng yeri 70 km ga boradi. Mutlaq balandligi g'arbida 200 m ni, sharqida esa 250 m ni tashkil etadi. Zarafshon daryosi Chandir qishlog'idan janubi-g'arbda nisbiy balandligi 15 m gacha bo'lgan Qorako'l platosini kesib o'tib, tor (kengligi 0,5-1,0 km) Qorako'l yo'lagini hosil qiladi. Bu yo'lak Buxoro deltasini Qorako'l deltasi bilan tutashtirib turadi [2].

Ma'lumki, har bir hududning tabiiy resurslaridan foydalanishda, joyning geografik o'rni, relyefi, iqlimiy sharoiti, suvlari, tuproq hamda o'simlik dunyosiga alohida e'tibor qaratiladi. Landshaft haqidagi ta'limot landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida shakllanayotgan "landshaftlar resursshunoslighi" ilmiy yo'nalishni rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi [3].

Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni landshaftshunoslik fanining yangi rivojlanish bosqichi va uning pirovard maqsadi deb baholash to'g'ri bo'ladi. "Agroimkoniyat" tushunchasi landshaft resurslarining qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Agroimkoniyatlar ham moddiy va nomoddiy mazmunga ega. Shu nuqtai nazardan tahlil qilinganda "Buxoro Varnet" MCHJ ham aynan shu omillarni inobatga olib, zamon talablari darajasida tashkil etilgan.

Buxoro viloyatining ko'p yarlari sho'rxok va qumloq, suv esa tanqis. Bunday joylarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun gidroponika usuli juda qulay. Shu bois 2018 yil 10 iyuldagi Prezident qarori bilan «Buxoro-agro» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan edi. Bu zona uchun Jondor, Kogon, Peshku, Romitan va Buxoro tumanlaridan 3 ming gektar yer ajratildi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilib, klaster tizimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish uchun keng sharoit yaratildi. «Buxoro Varnet» korxonasi ham ana shu imkoniyatlar samarasi natijasida barpo etildi. Loyihaning umumiy qiymati 120 million dollardan ziyod bo'lib, bu mablag'ning hammasini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar tashkil etadi.

Buxoro viloyati, Buxoro tumani "So'fikorgar" MFY hududida joylashgan "Buxara Varnet" MCHJ xorijiy korxonasi 2018 yilda tashkil etilib, 112,85 gektar yer maydoni ajratilgan. Bugungi kunda umumiy qiymati 98,5 mln dollar bo'lgan "Gidroponika usulida Turkiya texnologiyasi asosida zamonaviy oynali issiqxona barpo etish" loyihasini amalga oshirilmogda. Jami qurilgan oynali issiqxonalar maydoni 30 gektarni tashkil etib, shundan 7 gektari "Agro green house group" MCHJga, 3 gektari "Meva Sabzavot Green" MCHJga va 3 gektari "Agro Shabnam Plyus" MCHJga tegishli bo'lib, "Buxara Varnet" MCHJ korxonasining o'zi 3 gektar yer maydonidan hosil olmogda. Qolgan 14 gektar yer maydonida qurilish ishlari davom etmogda.

1990 yillardan boshlab, cho'l zonasida landshaft ta'limoti asosida madaniy landshaftlarni yaratishga bag'ishlangan g'oyalar bildirildi. Ayniqsa, "Cho'l zonasi madaniy landshafti" konsepsiyasining maqsadi, vazifalari va tamoyillari yaratila boshlandi [4]. Bu harakatlarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

I bosqich. XX asrning 90-yillaridan XXI asrning boshigacha "Cho'l zonasi madaniy landshafti" g'oyasining vujudga kelishi. Birinchi bosqichda antropogen landshaftshunoslik poydevorining shakllanishiga asos bo'lgan ishlar chuqur tahlil qilinib, cho'l zonasida tabiatdan samarali foydalanish masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqila boshladi. Masalan, 1992 yilda geosistema, va havza konsepsiyalari asosida Quyi Zarafshon regionini tabiatini optimallashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi ishlar misol bo'ladi. Bu bosqichda agrolandschaft, voha landshaftlari, irrigatsion landshaftlar kabi tushunchalar mazmuniga

izohlar berildi. Ba'zi quyidagi ilmiy nashrlarda madaniy landshaft konsepsiyasining asoslari bayon qilingan:

1. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Тошов Х.Р. "Народный опыт как основа оптимизации природопользования в аридной зоне Узбекистана" -Қарши. 1992.

2. Назаров И.Қ. "Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования (на материалах нижней части бассейна р. Зарафшан). - Тошкент.1992.

3. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. "Бухоро географияси". -Бухоро. 1994.

II bosqich. 2010 yildan hozirgacha "Cho'l zonasi madaniy landshafti" haqidagi konsepsiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilishi va amaliyotdagi ishtiroki. Mazkur bosqichda "Cho'l zonasi madaniy landshafti" haqidagi konsepsiyaning nazariy asoslari ishlab chiqildi, deyish o'rinlidir. Birinchidan, madaniy landshaft aholini umummadaniyatini yuksaltirishga, odob, go'zallik tarbiyasiga qaratilmog'i lozim. Ikkinchidan, madaniy landshaftning ko'rinishi, tashkil etilish darajasi uni yaratuvchi xalqning barcha sohalaridagi madaniyatidan xabar beruvchi indikatori degan xulosaga kelindi. Mazkur "Cho'l zonasi madaniy landshafti" haqidagi konsepsiyaning keng targ'ibotchisi taniqli olim I.Q.Nazarovdir [2].

Rekreatsiya-turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tahlil qilish quyidagicha xulosalar chiqarishga asos bo'ladi:

Madaniy landshaftning ko'rinishi, tashkil etilish darajasi uni yaratuvchi xalqning barcha sohalaridagi madaniyatidan xabar beruvchi indikatori bo'lib, madaniy landshaft atamasining ommalashuvi fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, tabiat-jamiyat qonunlarini chuqur bilish va unga amal qilishga undaydi.

Zarafshon mintaqasi landshaftlarining hududiy rekreatsion- turistik tizimlari, ularning hozirgi holatini saqlab qolish va hududda rekreatsiya va turizmni istiqbolda rivojlantirish bo'yicha geotizimlarning rekreatsion-turistik imkoniyatlarini aniqlash hamda noyob tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish choralarini kuchaytirishni taqazo etadi.

Landshaft haqidagi ta'limot landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida shakllanayotgan "landshaftlar resursshunosligi" ilmiy yo'nalishni rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Баротов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент., Ўқитувчи, 1996.
2. Назаров И.Қ., Тошев.Х.Р. Ландшафтлар ресурsshunosлиги Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23 -жилд Тошкент, 2003 ,18-20 бет
3. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Тошов Х.Р. Мавлонов А.М. Маданий ландшафтлар яратишнинг тамойиллари хусусида. 2002.
4. Эргашева М.К. Ўзбекистонда антропоген ландшафтшуносликнинг ривожланиши. // ЎзГЖ ахбороти. 55-жилд. -Тошкент, 2019. -Б. 23-26.

RAQAMLASHTIRISH ORQALI TURIZM IMKONIYATLARINI NAMOYON ETISH VA RIVOJLANTIRISH

Nasretdinova A., Bozorova J.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda hududlar turistik imiji va brendini yaratish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: turistik brend, turistik resurslar, infratuzilma, ziyoratgohlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar, turistik obyekt, madaniy meros.